

Мұғаллим ҳәм үзлиksiz билимлендіриў



ISSN 2181-7138

№ 3/1 - 2022 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:
А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:
Максат АЙЫМБЕТОВ
Нагмет АЙЫМБЕТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дишишхұжа АЙТБАЕВ
Тұлқин АЛЛАЁРОВ
Умида БАХАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Аскар ДЖУМАШЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ
Аскарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбай МИРСАНОВ
Бахтиёр РАХИМОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Қаххор ТУРСУНОВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Саодат ТОШТЕМИРОВА
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Дүстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсөр ЭРГАШЕВА

Шөлкемлестириўшилер:
Карақалпақстан Республикасы
Халық билимлендіриў
Министрлігі, ӨЗПИИИ
Карақалпақстан филиалы

Өзбекстан Республикасы
Министрлер Кабинети
жынындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қаары менен
дизимге алынды

Карақалпақстан Баспа сөз ҳәм
хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гүйалық
берилген.
Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналга келген мәқалаларға жүйелі қайтарылмайды, журналда жөргилянған мәқалалардан
алынған үзинділер «Мұғаллим ҳәм үзлиksiz билимлендіриў» журналынан алынды, дең корсетилінген
шарт. Журналға 5-6 бет колеміндегі материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтінде
электрон версиясы менен бирге қабыл етіледи. Мәқалада көлтирилген мәглұмматтарға автор жүйәпкер.

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХЭМ РУҮХҮЙЛҮҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Ilmurodova F.Sh. Kurslararo uzviylik asosida tarix fanlarini o'qitishning pedagogik
va metodik talablari 78

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Gaipov M., Eshqoraev Q., Abdullaev Sh. O'quvchilarni irratsional tenglamalarni yechishga o'rgatishning zamonaviy metodlari	84
Mardonqulov J .A., Majidov Sh.A. , Ubaydullayeva S.I. Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy tayyorgarlik sifatini baholash metodikasini takomillashtirish	86
Usmonov B.Z., Eshqorayev Q.A., Eraliyeva M.M. Tengsizliklarni koordinatalar usulida yechish	91
Abduqodirova P.T. Informatikadan maxsus kompetensiyalarni shakllantirish zarurati	94
Kutlimurotov A.R., Usmonov B.Z., Qurbanboev H. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matnli masalalarni variativ usullarda yechishni o'rgatish usullari	98
Djumabaeva S.K. Iqtisadiy va ijtimoiy geografiya darslaridastatistik ma'lumotlardan foydalanish metodologiyasi	102
Olimova A.A. Zamonaviy geografik maydonchaning o'quv jihatlari va ularning geografiya fanini o'qitishdagi ahamiyati	105
Eshqoraev Q.A. Informatika darslarida talabalarning mustaqil ijodi faoliyatini rivojlantiruvchi masalalar	109
Abdullahayeva N.A. Geometrik mazmundagi masalalarni kichik yoshidagi mifik o'quvchilarining geometrik bilimlarini oshirishdagi o'rni	111
Solaeva M.N. Umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilariga ba'zi misollarni o'rgatishda kreativ fikrlashni shakllantirish ko'nikmalari	116

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЁРБИЯ

Eshchanova G .O., Erimmetova R.K., Ollayorova B.M. Boshlang'ich sinf o'qish va matematika darslarida interfaol usullardan foydalanishning shakl, metod va vositalari	120
Abdunazarov A.O. Aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali omillari	123
Elmuratova D.M., Utanbayeva D .A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslar ...	127
Abdunazarov A. O. Aqli zaif bolalar toifalarini va ularning o'ziga xos rivojlanishi	132
Sattarova I.M., Maxamatova M.J. Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda interfaol usullardan foydalanishning samaradorligi	137
Ubaydullayev I. Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etish	142
Mamadaliyeva N.B. Uzlusiz ta'lim sharoitida kichik mifik yoshidagi bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlanishish	147
Tosheva N.T., Murodova Sh .Sh., Qodirova N.Z. Maktabgacha yoshdagilari bolalarda xalq marosimlari vositasida tabiatga muhabbat hissini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	151
Tosheva N.T., Zaynilloyeva G.O., Qodirova N.Z. Katta yoshdagilari bolalarni oilaviy va milliy qadriyatlar vositasida axloqiy tarbiyalash	155

ФИЗИКАЛЫҚ ТЁРБИЯ ХЭМ СПОРТ

Turapova Sh.X., Anqaboyev D.B., Xolnazarova D.T. Yosh voleybolchilarini tayyorlashda
sport trenirovkasining ahamiyati

IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYA DARSLARIDASTATISTIK MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISH METODOLOGIYASI

Djumabaeva S.K.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, aholi, matematik koefitsient, demografiya, absolyut ko'sratkich, statistika, promille.

Ключевые слова: экономическая и социальная география, населения, математический коэффициент, демография, абсолютный показатель, статистика, промилле.

Key wods: economic and social geography, population, mathematical coefficient, demography, absolute index, statistics, promille.

Kirish. Statistik ko'sratkichlar geografiya darslarida muayyan voqeа yoki hodisalarni tasvirlash, rivojlashin dinamikasini tahlil qilish, o'rganilayotgan ob'yekt bilan ikkinchi bir ob'yektni taqqoslash orqali umumiyl va xususiy jihatlarini anglab olish uchun foydalilanadi. Shuni ta'kidlash joizki, geografiya faniga oid tadqiqotlarni olib borish jarayonida ham biror bir hudud (okrug, rayon, viloyati, respublika va boshq.) o'rganilganda statistik ma'lumotlarga tayaniladi.

Dars jarayonida talabalar tomonidan mashg'ulotni bajarishda fanga doir kerakli statistik ma'lumotlarni darslik yoki rasmiy tashkilotlardan olgan holda amalga oshiriladi. Statistik ko'sratkichlar amaliy mashg'ulot paytida tegishli voqeа yoki hodisani tasvirlash uchun qo'llaniladi. Mashg'ulotning maqsadiga qarab biror hududga oid umumiyl yoki qismlari bo'yicha topshiriq beriladi. Bunday topshiriqlar ijodiy xarakterga ega bo'lib, aksariyat hollarda talabalar tomonidan katta qiziqish bilan bajariladi va o'zlariga bo'lgan ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Geografiya darslarida statistik ma'lumotlarga oid topshiriqlarni metodikasi A.I.Alekseev va V.N.Nikolinaning "Rossiya xo'jaligi va geografiyasi" darsligida ko'rish mumkin, ular quyidagilar:

talabani hududidagi (viloyat yoki tuman) iqtisodiy, ijtimoiy va demografik vaziyatni tavsiflovchi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish;

mahalliy aholi o'rtasida o'tkazilgan anketa-so'rovnomalar tahlili asosida yashash joyining ishlab chiqarish imkoniyatini aniqlash;

hududlar imkoniyatlarini sotsiologik so'rovnomalar asosida tizimli o'rganish.

Statistik ma'lumotlarni taqqoslash texnikasini shakkantirishda o'quvchilarning aqliy harakatlarni amalga oshirishni osonlashtirish maqsadida ularga turli ko'sratmalar va eslatmalardan foydalanan imkoniyati beriladi. V.A.Shchenev tomonidan talabalarga geografiyan o'rganishda taqqoslash texnikasini shakkantirish uchun "Qanday qilib to'g'ri taqqoslash kerak" deb nomlangan eslatma ishlab chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Sanoat yoki qishloq xo'jaligi geografiyasini o'rganish jarayonida ularning xususiyatlarni mutloq va nisbiy ma'lumotlar asosida taqqoslash amalga oshiriladi. Mutloq ma'lumotlarni taqqoslash talabalarga o'rganilayotgan ob'yektlarning mashtabini va xususiyatlarni aniqlash va tushunish, vaqt o'tishi bilan o'zgarishini kuzatish imkonini beradi. Chunonchi, turli yillardagi ishlab chiqarish to'g'risidagi mutlaq ma'lumotlarni taqqoslash mintqa (viloyat) qishloq xo'jaligi yoki sanoatning o'sishi yoki kamayishini kuzatish imkonini beradi. Mamlakat ma'muriy-hududiy birliklari doirasida esa ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdorini taqqoslash ularning rivojlanishidagi hududiy farqlarni topishga yordam beradi. Nisbiy ma'lumotlarni taqqoslash turli hududiy birliklarda o'rganilayotgan hodisaning darajalaridagi farqlarni

aniqlash imkonini beradi. Bunday taqqoslashga misol sifatida turli mamlakatlar va mintaqalarda ishlab chiqarish, uning samaradorligi yoki o'sish tezligini ko'rsatish mumkin. Bu yerda ma'lum bir turdag'i hududlarni ulardag'i rivojlanish darajasiga ko'ra ajratish mumkin. Ayniqsa, aholini o'rganishda taqqoslashning ushbu usuli juda keng qo'llaniladi, chunki uning dinamikasini aniqlashda – ma'lum bir davr qiymatining o'tacha darajasi, hududiy farqlari va ko'rib chiqilayotgan davr ko'rsatkichlari o'tacha darajasi olinadi. Masalan, aholining tarqalish xususiyatlarini o'rganilayotganda, aholi zichligi bir xil bo'lgan hududlar o'tasida solishtiriladi. Bu esa, har bir joyning o'ziga xos jihatlarini aniqlashga yordam beradi. Biror hudud aholisini, xususan, demografik vaziyatning xususiyatlarini o'rganayotganda, ko'rib chiqilayotgan davr uchun tug'ilish va o'limning o'tacha qiymatini aniqlash va ushbu ko'rsatkichlarning dinamikasini o'tacha ma'lumotlar bilan taqqoslash tavsija etiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Taqqoslash oliy ta'lim geografiyasining o'ziga xos turi bu mamlakatning ikki viloyati aholisi yoki ishlab chiqarishining qiyosiy tavsifini tuzish bo'lib, unda yuqorida ko'rsatilgan usullar birlgilikda qo'llaniladi. Mazkur qiyosiy xususiyatlar umumlashtiruvchi taqqoslash texnikasini shakllantirish metodologiyasining psixologik-pedagogik asoslari E.N.Kabanova-Meller asarlarida bayon etilgan. U "ajralish abstraksiya" usulini yaratdi, asosladi va qo'llash samaradorligini ko'rsatib berdi. Uning asl ma'nosi shundan iboratki, o'rganilayotgan hodisaning muhim xususiyatlarini ajratib olish, umumlashtirish va mavhumlashtirish qobiliyatini rivojlantirish bo'lib hisoblanadi. Talabalarning fikrashlari ikki bosqichli umumlashtirish orqali yengillashtiriladi. Ushbu jarayonda birinchi eng muhim, keyin esa qolgan belgilar umumlashtiriladi. E.N.Kabanova-Meller fikriga ko'ra, "Talabalar ataylab ob'yektlarning muhim va ahamiyatsiz belgilarini ajratadilar hamda shu va boshqa xususiyatlar to'g'risidagi umumlashtirilgan bilimlarga tayangan holda ularni qarama-qarshi qo'yadilar" [3]. Shuningdek, u yana bir ta'rifida turli geografik ob'yektlarning o'zgaruvchan xususiyatlari muhim ahamiyatga ega, deya hisoblaydi.

Hodisalarning xususiyatlarini aniqlash faqat mutlaq yoki nisbiy ko'rsatkichlar bo'yicha amalga oshirilmaydi. N.N.Petrova fikri bo'yicha, nisbiy va mutlaq ko'rsatkichlar o'tacha qiyamat bilan solishtirishni o'rgatishda qiziqarli va samarali bo'ladi. Uning tavsiyasiga ko'ra, ob'yektning xususiyatlarini statistik jadvallar, xaritalar, grafiklar, diagrammalar yordamida o'rganish, so'ngra, ularning umumiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish hamda taqqoslash, o'xshash jihatlarini aniqlash, farqli jihatlarini esa belgilab borish zarur [5].

Umuman olganda, ishlab chiqarish jarayonlarini taqqoslash quyidagilarni aniqlashga imkon beradi:

- a) voqeavojlanishining umumiyy tendensiyasi;
- b) ma'lum bir miqdorlarning qiymati (ko'p yoki oz, katta yoki kichik);
- v) xususiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi (masalan, ishlab chiqarishning notekisligi).

L.M. Pancheshnikova ta'kidlaganidek, "Geografiya o'qitishda turli xususiyatlar ustida ishslash ikki xil ma'noga ega: ajratib olish va umumlashtirish. Bir tomonidan, umumiy tushunchalarni shakllantirish zarur, boshqa tomonidan, ular iqtisodiy geografik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi va shuning uchun yagona markaziy tushunchalarni o'zlashtirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega [4]. Shunday qilib, biror hudud iqtisodiy geografik xususiyatlarining qiyosiy tavsiflarini amalga oshirishda talabalarning e'tiborini o'xshash, umumiy xususiyatlarni aniqlashga imkon beradigan muhim xususiyatlarga qaratish muhim.

Aholining qiyosiy tavsifi statistik materiallarni tahlil qilish asosida demoetnik hodisalar va nisbatlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlardagi o'xshashlik va farqlarni ajratib ko'rsatish

орқали берилади. Нома’лум бирор hodisani o‘rganishda avval ularni qismlarga ajratish so‘ngra umumlashtirish lozim. Bunda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga doir statistik materiallarni qiyosiy tahlil qilish, ulardagи o‘xshashlik va farqlarni ko‘rsatib bera olish asosiy hisoblanadi.

Hududlar iqtisodiy salohiyatining qiyosiy tavsiflari talabalar uchun juda qiyin vazifadir, chunki bu orqali geografiya fanida kognitiv faollikni yuqori darajada rivojlantirishni talab qiladi. Bizningcha talabalar har doim ham o‘zlariga taklif qilingan topshiriqlarni xususiyatlarni aniqlay olmaydilar, ya‘ni hudud ishlab chiqarish xususiyatlarining sabablarini ochishga qiynaladi. Shuning uchun o‘qituvchi ularni quyidagi savol va topshiriqlardan foydalangan holda o‘quv faoliyatining statistik tafakkurni rivojlantirish tomon yetaklashi zarur:

Topshiriq: hudud iqtisodiy geografik xususiyalarini tavsiflash kerak bo‘ladigan axborot manbalari, ya‘ni xaritalar, diagrammalar, grafiklarni hamda ilovadagi statistik jadvallarni yodda saqlash.

Mamlakatning yalpi ichki mahsulotiga o‘sishiga (yoki kamayishiga) qanday omillar o‘zini ta’sirini ko‘rsatmoqda?

Mamlakat viloyatlarida aholi zichligi qanday? Bu mamlakat o‘rtacha ko‘rsatkichidan (yoki eng ko‘p aholiga ega bo‘lgan viloyatdan) qanday farq qiladi?

Investitsiyaning mamlakat rivojlanishiga ta’siri qanday? Viloyatlarning infrastruktura xususiyatlari qanaqa?

Davlatlar bo‘yichaaholining jinslar nisbati qanday? Qaysi yoshdagi aholi ko‘p? O‘rtacha umr ko‘rish davomiyligichi? Aholining yosh va jins tarkibining hududlardagi holati qanday?

Viloyatlarda qaysi ishlab chiqarish sohalari ustunlik qiladi?

O‘zbekiston aholisining etnik holati qanaqa? Qaysi millat eng ko‘p (ikkinchi, uchinchi o‘rinda qaysilar)? Ular qaysi tillarda gaplashishadi?

Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojalanishidagi hududiy farqlar haqida tushuntiring?

O‘zbekiston mehnat resurslari bilan bog‘liq imkoniyati qanday? Ularning ish bilan ta’milanganlik darajasi. Aholining bandlik tuzilmasi qanday xususiyatlarga ega? Ularning asosiy qismi iqtisodiyotning qaysi (ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish) tarmoqlarida ishlaydi?

Mamlakatda shahar aholisi ustunmi yoki qishloq aholisimi? Urbanizatsiya darajasi qanday? Bu dunyo o‘rtacha ko‘rsatkichidan necha marta (qancha) kam (ko‘p)? Viloyatlarda qanday kattalikdagi shaharlar va qishloqlar ustunlik qiladi?

Ishlab chiqilgan ushbu savollar ro‘yxati oliy ta’lim geografiyasida iqtisodiy geografik holatni tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni tizimining asosini tashkil etuvchi o‘quv dasturiga asoslanadi. Unga ko‘ra, talabalar savollarga javob berishda taqdim etilgan tizimning barcha ko‘rsatkichlaridan foydalangan holda mayjud statistik ko‘rsatkichlar bilan hududlar iqtisodiy salohiyatining o‘xshashliklari va farqlarini aniqlaydilar.

Iqtisodiy geografik jihatlarni tavsiflovchi statistik ko‘rsatkichlarni hisoblash vazifalari qat’iy ravishda farqlanishi kerak. Ularning mamlakat geografiyasini o‘rganishdagi ahamiyati talabalar tomonidan foydalanilayotgan ko‘rsatkichlarning mohiyatini, hisoblangan ko‘rsatkichlar asosida bilim olishda mustaqil fikrga ega bo‘lishdir.

Iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarni tavsiflovchi statistik ko‘rsatkichlarni hisoblash usulidan foydalananining samarali usullaridan biri sifatida tabiiy resurslardan foydalanish muammolarini ko‘rib chiqish mumkin. Ularni qo‘llashdan maqsad talabalarini tabiiy resurslar miqdori, ko‘payishi, tarqalishini tavsiflovchi statistik ko‘rsatkichlarni aniqlashga

МУГАЛЛИМХӨМУЗЛИКСИЗБИЛМЛЕНДИРИЙ

асосланган qiyosiy tahlil usullari bilan tanishtirish va shu bilan ularning nazariy bilimlarini hamda amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashdan iborat. Ular mutlaq ma'lumotlarga asoslangan nisbiy statistik ko'rsatkichlarni hisoblash bilan bog'liq yoki aksincha. Shu bilan birga, ularning bir nechta turlarini ajratish mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada statistik ma'lumotlarning asosiy manbalari statistik jadvallar va grafik tasvirlar bo'lib, ular diagramma va grafiklarni, shuningdek, xaritalarni o'z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlar orqali sifat va miqdor tahlili o'tkaziladi. Umuman olganda, iqtisodiy va ijtimoiy geografik qiyosiy tavsiflarini qabul qilish o'quvchilarning statistik ma'lumotlar asosida amalga oshiriladigan quyidagi aqliy harakatlarni o'z ichiga oladi: birinchidan, eng zarur xususiyatlarni ajratib olish va umumlashtirish, ikkinchidan, farqlanuvchi xususiyatlarni ajratib olish va umumlashtirish va uchinchidan, muhim o'zgaruvchan xususiyatlarni tizimlashtirish va qarama-qarshilikni o'z ichiga olgan umumiyligini xulosa.

Adabiyotlar:

1. Алексеев А.И., Николина В.В. Население и хозяйство России: Учебник. - М.: Просвещение, 1995. - 320 с.
2. Богоявленский Д.Н., Менчинская Н.А. Психология усвоения знаний в школе. - М.: Изд-во АПН РСФСР, 1959. - 347 с.
3. Кабанова-Меллер Е.Н. Психология формирования знаний и навыков у школьников. - М.: Изд-во АПН РСФСР, 1962. - 376 с.
4. Панчешникова Л.М. Основы методики обучения экономической географии зарубежных стран. - М.: Педагогика, 1975. - 200 с.
5. Петрова Н.Н. Методика преподавания географии в дифференцированной школе. - М.: Блик и Ко, 2000. - 336 с.

РЕЗЮМЕ

Maqolada iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida statistik ma'lumotlardan foydalanish metodologiyasi, statistik ko'rsatkichlardan foydalanish xususiyatlari, ular orqali hududlar ko'rsatkichlarini taqqoslash, umumiy va xususiy jihatlarini aniqlash hamda tahlil qilish yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье описывается методика использования статистических данных на уроках экономической и социальной географии, особенности использования статистических показателей, с помощью которых сопоставляют региональные показатели, выявляют и анализируют общие и частные аспекты.

SUMMARY

The article describes the methodology of using statistical data in the lessons of economic and social geography, the features of the use of statistical indicators, through which they compare regional indicators, identify and analyze general and specific aspects.

ZAMONAVIY GEOGRAFIK MAYDONCHANING O'QUV JIHOZLARI VA ULARNING GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDAGI AHAMIYATI

Olimova A.A.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Tayanch so'zlar: zamonaviy geografik maydoncha, geografiya, gorizontal quyosh soati, gnomon, gidrometeorologik stansiya, osadkomer, tog', vulqon.

Ключевые слова: современный географический площадка, география, горизонтальные солнечные часы, гномон, гидрометеостанция, осадкомер, гора, вулкан.

Key words: modern geographic area, geography, horizontal sundial, gnomon, hydrometeorological station, sedimentary, mountain, volcano.